



## NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 9-oktabr

523-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

**Namangan viloyati hokimining 2024-yil 28-sentyabrda “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlarini joriy etishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 5-sentyabrdagi PQ–311-son qarori ijrosi haqida”gi 446-6-0-Q/24-sonli qarori haqida**

Aholiga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatini oshirish, sog‘liqni saqlash tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarni izchil davom ettirish, budget mablag‘laridan samarali foydalanish hamda davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlarini respublikaning boshqa hududlarida joriy qilish bo‘yicha ishlarni amalga oshirish hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlarini joriy etishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 5-sentyabrdagi PQ–311-son hamda Namangan viloyati hokimining 2024-yil 28-sentyabrdagi 446-6-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

### **QAROR QILAMAN:**

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 28-sentyabrdagi 446-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va amalda ijrosini ta‘minlash uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-sentyabrdagi PQ–311-son qarori bilan:

belgilab qo‘yilishicha, davlat tibbiy sug‘urtasi doirasida bepul tibbiy xizmatlar ko‘rsatish va dori vositalarini taqdim etish Davlat budgetiga to‘lanayotgan soliqlar hisobidan amalga oshirilishi. Bunda aholidan davlat tibbiy sug‘urtasi uchun qo‘shimcha to‘lov undirilmasligi;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida quyidagilarni nazarda tutuvchi davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlari 1-ilovaga muvofiq bosqichma- bosqich joriy etilishi;

2025-yil 1-iyuldan boshlab quyidagilar davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlari joriy etilgan hududlarda tuman (shahar) va hududiy darajadagi tibbiyot muassasalarida rejali statsionar tibbiy yordamni elektron navbat asosida bepul olish huquqiga ega bo‘lishi:

a) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i yoki ijtimoiy soliq to‘lovchilar;

b) Soliq kodeksiga muvofiq mehnat stajini hisoblab chiqarish uchun belgilangan miqdorlarda soliq to‘lagan shaxslar;

v) voyaga yetmaganlar, ta‘lim tashkilotlari o‘quvchi-talabalari, homilador ayollar va ikki yoshga to‘lmagan bolasini parvarishlayotgan shaxslar, mehnat organlarida ishsiz sifatida rasmiy ro‘yxatdan o‘tganlar, davlat pensiyasini oluvchilar hamda “Ijtimoiy himoya yagona reestri” axborot tizimi orqali kam ta‘minlangan deb e‘tirof etilgan oilalarning a‘zolari;

2027-yil 1-yanvardan boshlab so‘nggi bir yil davomida kamida olti oy jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i yoki ijtimoiy soliq to‘laganlar, shuningdek, ushbu bandning “b” va “v” kichik bandlarida ko‘rsatilgan shaxslar uchun davlat tibbiy sug‘urtasi tizimida yuqori texnologik tibbiy yordam bepul amalga oshirilishi;

bemorlarni shifoxonaga yo‘llashda 2-ilovaga muvofiq vazirlik va idoralar o‘zlarining elektron axborot tizimlarini “Elektron sog‘liqni saqlash” axborot tizimiga integratsiya qilgan holda mazkur bandda ko‘rsatilgan shaxslar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni onlayn tarzda taqdim etish imkoniyatini yaratishi;

quyidagilar:

Davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlarini joriy etish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi 3-ilovaga muvofiq;

Toshkent shahri davlat tibbiyot muassasalarini jihozlash uchun tibbiy asbob- uskunalar ro'yxati 4- ilovaga muvofiq;

Toshkent shahri davlat tibbiyot muassasalarini ta'minlash uchun axborot- kommunikatsiya jihozlari va tarmoq qurilmalari ro'yxati 4a-ilovaga muvofiq;

Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat tibbiyot muassasalarini jihozlash uchun tibbiy asbob-uskunalar ro'yxati 5- va 5a-ilovalarga muvofiq;

Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat tibbiyot muassasalarini ta'minlash uchun axborot-kommunikatsiya jihozlari va tarmoq qurilmalari ro'yxati 5b-ilovaga muvofiq; Sirdaryo viloyati davlat tibbiyot muassasalarini jihozlash uchun tibbiy asbob-

uskunalar ro'yxati 6- va 6a-ilovalarga muvofiq;

Sirdaryo viloyati davlat tibbiyot muassasalarini ta'minlash uchun axborot- kommunikatsiya jihozlari va tarmoq qurilmalari ro'yxati 6b-ilovaga muvofiq;

Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi to'g'risidagi nizam 7-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

Mazkur bandga muvofiq xarid qilinadigan axborot-kommunikatsiya jihozlari va tarmoq qurilmalarini, istisno tariqasida, loyihaoldi hujjatlar va texnik-iqtisodiy hisobni ishlab chiqmasdan, "Davlat axborot tizimlarini yaratish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha yagona integrator — "UZINFOCOM" MChJ orqali yetkazib beruvchilar bilan

to'g'ridan-to'g'ri tuziladigan shartnomalar asosida ushbu maqsadlar uchun nazarda tutilgan mablag'lar doirasida xarid qilishga ruxsat berilganligi;

mazkur qarorning 4-bandida nazarda tutilgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun 2024-yilda quyidagi manbalar hisobidan 170 mlrd. so'm yo'naltirilishi:

Tibbiyotni rivojlantirish davlat maqsadli jamg'armasidan — 71 mlrd. so'm (shundan 21 mlrd. so'm qoldiq mablag'lar);

Davlat budjetidan qo'shimcha ajratiladigan mablag'lardan — 50 mlrd. so'm;

Sog'liqni saqlash vazirligiga respublika budjetidan ajratilgan mablag'lar doirasida — 23 mlrd. so'm;

Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika budjetidan — 11 mlrd. so'm; Toshkent shahri mahalliy budjetidan — 10 mlrd. so'm;

Sirdaryo viloyati mahalliy budjetidan — 5 mlrd. so'm;

2025-yildan boshlab tibbiyot muassasalarini tibbiy asbob-uskunalar bilan jihozlash bilan bog'liq zarur mablag'lar Davlat budjeti parametrlarini shakllantirishda nazarda tutilishi;

shunday tartib o'rnatilganki, unga muvofiq davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini joriy etish doirasida:

a) 2024-yil yakuniga qadar bemorning barcha tibbiy ma'lumotlari asosida shakllantirilgan va tibbiyot muassasalarining o'zaro uzviy hamkorligini ta'minlaydigan "Elektron poliklinika" va "Elektron shifoxona" axborot tizimlari amaliyotga joriy etilishi;

b) ko'rsatilgan tibbiy xizmatlarning kafolatlangan paketga muvofiqligini o'rganish, tibbiyot muassasalariga to'lovlarni ular tomonidan bajarilgan ishlar hajmi va erishilgan natijaga asosan amalga oshirish imkonini beruvchi davlat tibbiy sug'urtasining axborot tizimi Jamg'arma tomonidan ishlab chiqiladi hamda amaliyotga joriy qilinishi;

v) tibbiyot muassasasi rahbariga muassasaning quvvati doirasida bo'linmalar ixtisoslashuvini, ulardagi davo o'rinlari sonini o'zgartirish hamda ajratilgan mablag'lar doirasida xodimlar sonini ish hajmiga muvofiq belgilash vakolati berilishi;

g) tibbiy xizmatlar xaridi asosida Jamg'arma orqali moliyalashtiriladigan davlat tibbiyot muassasalariga budjet mablag'lari oluvchisi maqomi berilishi. Bunda ularga nisbatan Davlat budjetiga undiriladigan soliqlar va majburiy to'lovlar bo'yicha budjet tashkilotlari uchun belgilangan tartib qo'llanilishi;

d) tibbiyot muassasalari uchun tasdiqlangan shtat me'yorlari tavsiyaviy tusga ega hisoblanishi hamda 2025-yil 1-iyuldan boshlab tibbiyot va farmasevtika xodimlari mehnatiga haq to'lashning alohida tartibi hamda shartlari tatbiq etilishi;

ye) ko'rsatilayotgan tibbiy yordamning tasdiqlangan standart hamda protokollarga muvofiqligi va sifatini nazorat qilish Jamg'arma tomonidan, tibbiyot muassasalari faoliyatini baholovchi indikatorlarni ishlab chiqish va ular asosida doimiy monitoring o'rnatish Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan amalga oshirilishi;

belgilanishicha, 2025-yil 1-yanvardan boshlab hudud darajasidagi tibbiyot muassasalariga Davlat budjetidan mablag' ajratish (kapital qo'yilmalar, fan va ilmiy izlanishlar, emlash va boshqa maqsadli dasturlar

uchun ajratiladigan mablag‘lar bundan mustasno) mazkur qarorning 2-bandi “b” va “ye” kichik bandlari hamda 6-bandi “v” va “g” kichik bandlarida nazarda tutilgan qoidalarga muvofiq amalga oshirilishi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hamda O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga 8-ilovaga muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

3. Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (Z.Jurabayev), Tibbiyot birlashmasi (O.Qo‘ldoshev), “O‘zbektelekom” AK Mingbuloq filiali (U.Xashimov) davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlari joriy qilinadigan muddatga qadar tibbiyot muassasalarini zarur jihozlar, kompyuter texnikasi va boshqa texnik vositalar, lokal tarmoqlar bilan ta‘minlash ishlarini tashkil etsin;

Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (Z.Jurabayev) Davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlarini, shu jumladan, moliyalashtirishning yangi usullarini joriy etish jarayonida talab etiladigan mablag‘larning qo‘shimcha ajratilishini ta‘minlash bo‘yicha viloyat hokimligiga taklif kirtsin.

4. Tibbiyot birlashmasi (O.Qo‘ldoshev) manfaatdor tashkilot va idoralar bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-sentyabrdagi PQ–311-son qarori talablari asosida ish tashkil etsin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari – iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi boshlig‘i A.Abdusalomov va tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari J.Raximov zimmasiga yuklansin.

**Tuman hokimi**



**A.Mansurov**